

BOBUR ILMIY-MA'NAVIY MEROSINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI**Abduvaitov Eldorbek Farxod o'g'li***Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi*eldorbekstudent@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning klassik adabiyotimiz ravnaqiga qoshgan hissasi haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Davlat arbobi, etnograf, qo'lyozma nusxalari, ilmiy izlanishlar, transkripsiya, o'zbek klassik adabiyoti.*

KIRISH

Har bir xalqning ulug'vorligini va nafosatini belgilab beruvchi tarixiy shaxslari bo'ladi. Ana shunday shaxslardan biri Zahiriddin Muhammad Boburdir. O'zbek klassik adabiyotining eng yirik namoyondalaridan biri bo'lgan Zahiriddin Muhammad Bobur qisqa vaqt umr ko'rishiga qaramasdan o'zidan juda katta ijodiy, ma'rifiy, ilmiy meros qoldirishga ulgurdi. U yaratgan solnomalar juda katta qismni tashkil etgan bo'lsa-da, bizgacha ulardan ma'lum bir qismigina yetib keldi. Ko'plab tarixiy, siyosiy, bosqinchilik davrlaridan omon kelgan asarlariga shikast yetkazildi; zarar beradigan darajada zarar yetkazildi; ming afsuslar bilan aytamizki, batamom yo'q bo'ldi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Boburning hozirgacha ilk xazinasiga kelib qo'shilgan asarlari - uncha to'liq bo'lmagan bir devoni, islom dini asoslarini bayon etuvchi "Mubayyin" nomli she'riy risolasi, "Voldiyya" atalgan tasavvufga oid kitobchaning nazm bilan tarjimasi, Bobur ixtiro etgan va "Xatti Boburiy" nomi bilan mashhur bo'lgan alfavit jadvali hamda hamda "Boburnoma" asaridan iboratdir¹³⁵. Bobur shaxsiyati haqida gapirar ekanmiz, uning eng yirik va tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan ishni, ya'ni Boburiylar sultanatini barpo etganini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Bu sultanat jahon tarixida eng uzoq hukmronlik qilgan sulolalardan biri ekanligi hammamizga ma'lum. Sultanatga o'z nomini bergen Bobur bиринчи navbatda, davlat arbobi va shoh edi. Shohlik bilan bir qatorda badiiy ijodni, siyosatshunoslikni, tarixnavislik va bir necha sohalarni mukammal egallagan Boburni qomusiy olim sifatida bemalol ko'rishimiz mumkin. Bunga esa hech qanday shak-shubha yo'q.

MUHOKAMA

Bobur buyuk podshoh, mumtoz shoir, nazariyotchi adabiyotshunos, faqih, tilshunos, san'atshunos, etnograf, hayvonot va nabotot olamining biliqdoni¹³⁶ sifatida faoliyat olib borgan. Boburning yetuk shaxs ekanligini nafaqat O'zbekiston, Markaziy Osiyo xalqlari, balki dunyo xalqlari ham e'tirof-u ehtirom etgan. Boburdan qolgan ijodiy meros haqida so'z yuritilganda, u yaratgan "Boburnoma" asari haqida to'xtalmay hech ilojimiz yo'q.

¹³⁵ Boburnoma: [O'rta yosh maktablari uchun] / [Nashrga tayyorlovchi P.Shamsiyev; Muharrir A.O'ktam]. - T.:Yulduzcha, 1989. 3-b.

¹³⁶ Boburnoma / Zahiriddin Muhammad Bobur; Tahrir hay'ati A.Qayumov, X.Sultanov, B.Alimov va boshq.; Xalqaro Bobur fondi. - T.: "O'qituvchi" NMIU, 2008, - 3-b.

NATIJA

Boburdan qolgan ijodiy merosning eng muhim va eng yirigi O'rta Osiyo, Afg'oniston, Hindiston, va Eron xalqlari tarixi, geografiyasi, etnografiyasiga oid nodir va qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan va o'sha davr o'zbek klassik adabiyoti, adabiy tilining yorqin namunasi bo'lgan "Boburnoma" asaridir¹³⁷. Bu asar o'sha davrlardan boshlaboq o'rganila boshlagan edi. Asardagi qimmatli ma'lumotlarni o'rganishga bo'lgan qiziqish kundan kunga ortib bormoqda. Sharq olimlarining diqqat markazida bo'lib kelayotgan ushbu asarning qo'lyozma nusxalari allaqachon izlana boshlagan, g'arb tillarining deyarli barchasiga tarjima qilinib ulgurdi. Asarning qo'lyozma nusxalarini topish, nashrga tayyorlash va dunyo ko'z o'ngiga olib chiqish uchun o'zining beqiyos xizmatlarini ayamagan turkolog N.I.Ilminskiyning xizmatlarini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Bundan tashqari inglez orientalistlaridan A.Beverij xonimning xizmatlari ham quvonarli darajada. Umuman olganda, asarni qo'lyozma nusxalarini topish, puxta o'rganish, nashrga tayyorlash, kitob holiga keltirish osonlikcha amalga oshmadi. Manbalarga qaraganda, XX asrning ikkinchi yarmilariga kelibgina kitob holiga keltirildi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joziki, Bobur va uning adabiy merosi (jumladan, "Boburnoma") haqida amalga oshiralayotgan nomzodlik yoki doktorlik dissertatsiyalari, bitiruv malakaviy ishlari, magistrlik himoyalari amalga oshirilishiga qaramasdan, ba'zi bir nuqson va kamchiliklar hali hamon mavjudligicha qolmoqda. Bu esa o'z navbatida, ilmiy izlanishlarni yana ham chuqurroq va murakkabroq holda amalga oshirilishini taqozo etmoqda. Ayniqsa kishi ismlari, o'simlik, hayvonot va boshqa xil atamalar transkripsiyasidagi kamchiliklar shular jumlasidandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Boburnoma: [O'rta yosh maktablari uchun] / [Nashrga tayyorlovchi P.Shamsiyev; Muharrir A.O'ktam]. - T.:Yulduzcha, 1989. 3-b.
2. Boburnoma / Zahriddin Muhammad Bobur; Tahrir hay'ati A.Qayumov, X.Sultanov, B.Alimov va boshq.; Xalqaro Bobur fondi. - T.: "O'qituvchi" NMIU, 2008, - 3-b.

¹³⁷ Boburnoma: [O'rta yosh maktablari uchun] / [Nashrga tayyorlovchi P.Shamsiyev; Muharrir A.O'ktam]. - T.:Yulduzcha, 1989. 3-b.